

ABU RAYHON BERUNIY ANTROPOLOGIK TA'LIMOTINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Xandamova Ma'rifat

Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent, Samarqand davlat chet tillar instituti

Begaliev Jurabek

Toshkent Kimyo Xalqaro Universitetining Samarqand filiali katta o‘qituvchisi

E-mail: jurabek.begaliyev81@mail.ru

Annotatsiya. Abu Rayhon Beruniy o`z qomusiy ta`limotlari bilan tarixdan joy olgan mutafakkir hisoblanadi. Ushbu maqolada olimning antropologik ta`limotining ijtimoiy-falsafiy jihatlari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Beruniy, antropologiya, shaxs, jamiyat, boshqaruv, tarix.

KIRISH

Ta’kidlash lozimki, barcha narsa-hodisalarining dialektik o‘zgarish va harakat bilan mavjudligi g‘oyalari Markaziy Osiyolik qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy asarlarida ko‘p uchraydi. Bunga allomaning «Oqar suv to‘xtab qolgan suv singari buzilmaydi»¹ degan fikri yaqqol misol bo‘la oladi. Qaysidir jihatlari bilan qadimgi yunon faylasufi Geraklitning «Oqar suvga bir xil tarzda ikki marta tusha olmaysan»² degan xulosasiga hamohang tarzda aytilgan mazkur mulohaza tabiatdagi singari jamiyatdagi jarayonlarga ham bab-baravar tegishlidir. Shu bilan birga ular orasida farq ham bor. Masalan, tabiatdagi jarayonlar insonsiz ham mavjud bo‘lishi mumkin. Jamiyatda esa inson bo‘lmas ekan, undagi jarayonlarning mavjudligi imkonsiz.

¹ Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

² Lutfullaeich, S. B. (2021). The views of philosophiacal analysis of ancient greek scholaks on social relations. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(07), 94-101.

Negaki, jamiyatning tartib-qoidalari inson tomonidan yaratiladi va inson ushbu tartib-qoidalarni o‘zi xohlagan paytda o‘zgartirishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy munosabatlар doirasida Abu Rayxon Beruniy o‘ziga xos qarashlarni ilgari surgan, «Mag‘ribning uzoq o‘lkalarining birida yashaydiganlar haqida hikoya qilishlaricha, u yerlarda o‘lkani idora qilish a’yonlar va yer egalari o‘rtasida navbatma-navbat bir-biriga o‘tib turarmish, kimga navbat kelsa, o‘sha uch oy hukm yuritarmish. Muddati tugashi bilan u o‘z- o‘zidan o‘lkani idora qilish amalidan tushib, minnatdorchilik uchun sadaqaberar va o‘z ahli orasiga qaytar, bu bilan u go‘yo kishandan bo‘shaganday xursand bo‘lar va o‘z ishi bilan band bo‘lar ekan». Olimning mazkur qarashlari, bugungi zamonaviy ijtimoiy voqelikning muhim siyosiy qadriyati hisoblangan demokratiyaga to‘la mos keladi. Zero, davlat boshqaruvchilarini ma’lum muddatda almashib turishi demokratiyaning ustuvor tamoyillaridan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Shaxs va jamiyat munosabatlari masalasida Qadimgi yunon hamda Forobiy kabi markaziy osiyolik faylasuflarning qarashlarini davom etirgan va yangi g‘oyalar bilan boyitgan mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973– 1048)dir. Garchi Beruniy Forobiy kabi jamiyat va ijtimoiy voqelarga oid bir tizimga solingan mukammal ta’limot yaratmagan bo‘lsa ham, buyuk olim sifatida hamma zamonlar uchun o‘ta muhim masala bo‘lgan – jamiyat, insonning ijtimoiy hayoti, inson baxti kabi masalalarda o‘z fikr-mulohazalarini aytib o‘tgan. Bu tabiiy hol edi. Zero, Beruniyning barcha ilmiy qarashlari, ijtimoiy faoliyatga yo‘naltiruvchi hamda belgilovchi omil bo‘lib, uning insonparvarligi, ijtimoiy taraqqiyotni ta’min etishga qaratilgan intilishlari, ezgu orzu-umidlari shu asnodadir. Beruniyning ham shaxs va jamiyat munosabatlari masalasiga oid qarashlari asosida jamiyatning vujudga kelishida insonlarning o‘zaro yordamga muhtojligi g‘oyasi yotadi. Lekin Beruniy

tabiatshunos olim sifatida odam- larning jamiyatga uyushishiga yana bir sabab, ya’ni ularning bir o‘zlarining tashqikuch va ofatlarga qarshi kurashda ojizligini ko‘rsatadi. Beruniy insonning jismoniy imkoniyatlari, hayot uchun ayovsiz kurashga qanday moslashganligini tahlil qilar ekan, inson o‘z-o‘zicha individ (shaxs) sifatida kuchsizligini, hayvonlar kabi kuchli, ayovsiz kurashga moslanmaganligini ta’kidlaydi. Uningcha, inson “hayvonlarning eng kichigiga ham qarshi tura olmaydi, chunki u kuch jihatidan ulardan zaif va himoya hamda hujum uchun ular ega bo‘lgan vositalarga ega emas”

Beruniy fikricha, odamlar o‘z holatlari, ehtiyojlarini anglagan va tasavvur qilgan sari katta ko‘lamda boshqa odamlar bilan hamjamiyatda yashash zarurligini tushuna boshlaydilar. Shunday qilib, ixtiyoriy holda hamjamiyatga uyusha boshlaydilar. Qandaydir ixtiyoriy shartnomaga vujudga keladi. Beruniy inson jamoalarining vujudga kelishini odamlarning ixtiyoriy kelishuvining natijasi hisoblagan holda, buni odamlarning “ixtiyoriy bo‘ysunishi” deb ham hisoblaydi [5] Chunki, uningcha, aks holda har bir odam hokimlikka intilgan bo‘lardi. Bu esa jamiyatdagi tartibning, barqarorlikning buzilishiga olib kelardi. Shuning uchun davlatni boshqarish odamlarning “ixtiyoriy bo‘ysunishini taqozo qiladi”. Albatta, Beruniy ixtiyoriy bo‘ysunish deganda bir guruh odamlarning ikkinchi bir guruh odamlar ustidan zo‘ravonligi,adolatsizligi va zulm qilishga haqli ekanliklarini ta’kidlamaydi. “Ixtiyoriy bo‘ysunish”dan maqsad jamiyatdagi turli tabaqalar, guruqlar, umuman, jamiyat fuqarolarining hamkorlikda, hamjihatlikda, kelishuvda faoliyat ko‘rsatishlarini va bu bilan odamlar o‘rtasidagi nizo-janjallar, bebosliklar tugatilib, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik vujudga kelishini ta’kidlaydi.

Inson hayoti odatda o‘zining yehtiyojlari va istaklarining o‘sishini qondirishdan hamda jamiyat oldida o‘zini e’tirof etishga va har sohada mukammallik tomon harakat qilishdan iborat bo‘lib qolmoqda. “Bundan so‘ng esa iroda erkinligi shaxsni tur xil zavlanishlarga chorlaydi. Hayvonot va o‘simlik

dunyosida shuni e'tirof etamizki ona tabiatning turli xil tiriklik shakllari bitmas – tiganmas energiyasi qanday qilib o'zi – o'zidan instinktiv tarzda namoyon bo'lishi, uni avtomatik impulsiga qanchalik buysunishini ko'rishimiz mumkin".

Aytish mumkinki, Abu Rayxon Beruniy jamiyat boshqaruviga oid yuqoridagi tartibotni o'z davrida amalga oshishiga to'liq ishonchi komil bo'limgan bo'lsa kerak. Abu Rayxon Beruniy yaxshilik va yomonlik insonlarhayoti va faoliyatining boshidan oxirigacha mavjud bo'lishligini ta'kidlagan. Insonning noaxloqiy xattiharakatlari va insoniylikka nomunosib ishlari o'zi haqida salbiy xulosalar chiqarilishini ko'rsatib o'tgan. Beruniyning quyidagi iborasi fikrimizning yaqqol isbotidir: «Odamlar turmush-hayotda har xil holatlarda bo'ladilar. Bularning bir turi bilan ular maqtaladilar, boshqasi bilan esa qoralanadilar». Darhaqiqat, shunday. Elparvar, halol va adolatli bo'lib, ezgulik va bunyodkorlik yo'lida xizmat qilganlar doimo xalqning olqish va maqtovlariga sazovor bo'lib yuradilar. Aksincha, o'z shaxsiy manfaatini ustun qo'yadigan, xudbin, egoist bo'lib, yovuzlik va vayronkorlik yo'lini tutganlar esa xalqning g'azab va nafratiga duchor bo'ladilar. Zotan ko'xna tarixdan, qolaversa bugungi zamon voqeliklaridan bunday holatlarga nisbatan ko'plab misollarni ko'rishimiz mumkin.

To'g'ri, inson jonzotlar ichida eng yuksagi hisoblanadi. Boshqajonzotlarda yo'q ko'plab ilohiy ne'matlar va qobiliyatlar faqat ungagina ato etilgan. Ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi hamda mavjud bo'lishi insonning aql-idroki, bilim va mehnatining samarasi natijasidir. Inson ongli faoliyati tufayli chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdogarchilik kabi odamlar moddiy-maishiy turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladigan mashg'ulotlar va ular asosida ko'plab kasb-hunarlar paydo bo'lgan, ko'r kamlikda tengsiz va bir-biriga o'xshashi yo'q qator me'moriy inshoatlar qurilgan va hokozo. Lekin, ming afsuski yuqorida sanab o'tilganlarba'zan insonning o'zi tomonidan barbod etilgan. Chunki, biz har qancha ulug'lamaylik, «inson o'z tabiatida bir-biriga qarama-qarshi...qorishmalardan tarkib

topgan badan egasidir».

Abu Rayxon Beruniy ijtimoiy munosabatlarni tahlil etar ekan, jamiyatda yashovchi odamlarning dunyoqarashlari har xil bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi: «Har bir xalqdagi yuqori tabaqa bilan avom xalqning e’tiqodi bir-biridan boshqacha bo‘ladi...Ayniqsa, u tabaqalarning fikr va irodalari turlicha bo‘lib, bir-biriga muvofiqlashmaydigan narsalar ustida bir-biridan boshqaroq bo‘ladi». Aytish mumkinki, bu fikr nafaqat Beruniy zamonasida dolzarb bo‘lgan, balki hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki, bugungi kun ijtimoiy munosabatlarini harakatga keltiruvchi bir qator ijtimoiy qatlamlar, guruxlar va sinflar mavjud. Jumladan, jamiyatda keksalar, o‘rta yoshlilar, yoshlar va voyaga yetmaganlar bo‘lib, ular orasida o‘quvchilar, talabalar, pensionerlar, turli kasb-hunar egalari, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlarda ishlovchilar, shuning barobarida ishsizlar ham bor. Ularning ijtimoiy ahvollari har xil bo‘lib, moddiy-maishiy turmush tarzlari ham turlichadir. Shunday ekan, jamiyatda yashovchi insonlarning dunyoqarashlarini bir xil bo‘lmasligi tabiiy xol. Masalan, o‘ziga to‘q oilada voyaga yetib, oliv o‘quv yurtini tamomlab katta darromadga ega davlat ishida ishlaydigan yoki o‘z biznesiga ega bo‘lganlar bilan og‘ir moddiy yetishmovchilik muhitida voyaga yetgan, shu sabab oliv ma’lumot ham ololmagan, ayni paytlarda chet davlatlarda qiyin sharoitlarda, yollanib mehnat qilayotgan vatandoshlarimizning hayotga bo‘lgan munosabatlari, fikrlash va dunyoqarashlarining bir xil bo‘lmasligi aniq. Ularni bir xil fikrlatishning iloji ham, imkonи ham yo‘qdir. Bu o‘rinda yuksalishni ko‘zlagan jamiyat, o‘zining barcha toifadagi a’zolarining qiziqish va manfaatlarini inobatga olishi shart. Aks holda ijtimoiy munosabatlarning sub’ekti bo‘lgan odamlar «Oralarida dushmanlik, bir- birini ko‘rolmaslik va nafsoniyat paydo bo‘lib, nihoyat bu betinchliklar, urushlar va boshqa yomonlik hamda ko‘ngilsizliklarga sabab bo‘ladi».

Abu Rayxon Beruniy ijtimoiy munosabatlarda axloqiylik va ilmning o‘ziga xos o‘rni borligini ham e’tirof etadi. Aksincha, noaxloqiylik hukm surgan joyda ijtimoiy munosabatlar doirasida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lishi haqiqatdan yiroqdir. Zotan noaxloqiylik azal-azaldan kishilik jamiyatni rivojini orqaga tortib kelgan. Insoniyat ongli mavjudot faoliyat ko‘rsatayotgan paytdan boshlab noaxloqiylik bilan kurashib keladi. Bu kurashdaba’zan g‘olib chiqqan bo‘lsa, ba’zan mag‘lub ham bo‘lgan. Shunda jamiyatda yolg‘on, fisqu-fasod, makr, xiyonat kabi salbiy illatlar avj olgan. Achinarlisi, jamiyatdagi ba’zi insonlar ana shu noaxloqiy illatlar ta’siriga tushib qolganliklarini o‘zлari ham sezmay qolganlar. Negaki, «Yolg‘onchilik kishini adolatdan yuz o‘girtiradi; zulm, yolg‘on guvohlik, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulkclarini xiyla bilan bosib olish, o‘g‘rilik dunyo va xalqningbuzilishiga sabab bo‘ladigan boshqa yomon xulqlarni kishiga yaxshi qilib ko‘rsatadi».

Noaxloqiylik ijtimoiy munosabatlarga darz keltiradi, axloqiylik esa ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Axloqiy fazilatlarni yuksaltirishdan va shu yo‘l bilan insoniyatga munosib hayot tarzini yaratibberishdan iboratdir. Beruniyning o‘zi bu borada shunday yozadi: «Yaxshi axloqli bo‘lish bilan birga, dunyo topishga yuz o‘girgan kishi topgan narsasini xayru ehson qiladi, bu dunyodayoq mukofot oladi, maqsad va istagiga erishadi, dunyoda baxtli bo‘lib yuradi». Baxtning o‘zi nima? Bu borada turlicha xulosalar bo‘lishi mumkin. Chunki, hamma baxtni har xil tushunadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Bizning nazarimizda, baxt bu insonning o‘zi istaganday umr kechirishi, qalbiga yaqin umr yo‘ldoshi bilan yashashi, o‘ziga yoqqan kasb-hunar bilan shug‘ullanishi, mehnatiga yarasha yuqori haq olishi, moddiy jihatdan to‘liq ta’milanib munosib turmush tarziga ega bo‘lishi, yuksak ma’naviy qadriyatlar asnosida shakllangan oilasi quchog‘ida va unga yuqorida sanab o‘tilgan shart-sharoitlarni ta’minlab bera oladigan jamiyat bag‘rida tinch-osoyishta, to‘kin-sochinlikda hayot kechirishidir. Noaxloqiy illatlar ilmsizlik va bilimsizlik natijasida

kelib chiqadi va avj oladi. Ilm va bilim orqali esa noaxloqiy illatlarning ildiziga bolta uriladi. Chunki, ilmli va bilimli inson yaxshi va yomonni farqiga boradi, axloqiy fazilatlarning o‘zining va jamiyat hayotining yuksalishi uchun muhim ekanligini tushunib yetadi va uni qaror toptirish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladi. Xulosalarimiz shuni ko‘rsatadiki, Beruniyning falsafiy antropologiyasida insonning kelib chiqishi va inson ongining qanday kuchga ega ekanligi tasvirlanadi, «Ilm pokligi boshqa hamma narsaning pokligidan yuqori turadi; chunki, bilimsizlik ilm orqali qo‘poriladi, azob va uqubat moddasi bo‘lgan shak-shubha o‘rniga ilm natijasida aniqlik keladi».

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Salimov B.L. Ijtimoiy munosabatlarning kommunikatsiya va transport tizimi bilan deterministik bog‘liqligining gnoseologik tahlili. Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. O‘zbekiston Milliy universiteti. Toshkent. 2022, 224 b.
2. Lutfullaevich, S. B. (2020). Dialektik kategoriyalarning inson hayotidagi falsafiy roli. Tarixiy psixologiya va tarix sotsiologiyasi, 13(1), 111-119.
3. Gumilyov L.N. Yerning etnogenezi va biosferasi. – M.:, 1990. – S. 65
4. Salimov, B. L. (2023). MARKAZIY OSIYO OLIMLARINING IJTIMOIY MUNOSABATLAR HAQIDAGI FIKRLARI. Sharq uyg‘onishi: Innovatsion, ta’lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 3(1-2), 178-182.
5. Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. II-tom. – T.: “Fan”, 1965. – B. 409.
6. Beruniy. Mineralogiya, 1963. – B. 11.
7. www.ziyonet.uz
8. www.dislib.uz